XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-may VII-9-77-8-0-K/25 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 475-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 204-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Surxondaryo viloyatida issiqlik ta’minoti tizimini tubdan yaxshilash, aholini issiqlik energiyasi bilan uzluksiz va sifatli ta’minlash, shuningdek, issiqlik ta’minoti tizimini boshqarishda samarali va ilg‘or tajribalarni joriy etish maqsadida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. “Surxondaryo viloyati “Issiqlik mabayi” davlat unitar korxonasining viloyatdagi issiqlik va issiq suv xizmatlari xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Surxondaryo viloyatida belgilangan issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar) ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Surxondaryo viloyati “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi (Y.Mashiyev) tuman (shahar) larda aniq manzilli va muddatli reja-grafik asosida aholi o‘rtasida issiqlik va issiq suvlari uchun onlayn to‘lovlarini amalga oshirish bo‘yicha turli shakldagi semenarlar tashkil etsin va natijasi yuzasidan joriy yilning yakuniga qadar xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga yozma axborot kiritsin.

4. Viloyat Axborot va ommaviy kommunakatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 29-yanvardagi “Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida” VI-82-20-8-0-K/24-sonli qarori va xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 17-apreldagi “Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 29-yanvardagi Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv

xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida” VI-82-20-8-0-K/24-sonli qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida” VI-84-69-8-0-K/24-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun Surxondaryo viloyati hokimligiga yuborilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yuqubov) zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 21-maydagi
VII-9-77-8-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida belgilangan issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun TARIFLAR (NARXLAR)

T/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Maqullangan narx
1.	Markaziy issiqlik energiyasi aholi uchun	1 m^2 oyiga	3506,3
2.	Issiq suv aholi uchun hisoblagichsiz	1 kishi oyiga	30553,3
3.	Issiq suv aholi uchun hisoblagich	1 m^3 issiq suv	5381,93
4.	Yuridik tashkilotlar uchun issiqlik energiyasi	1 Gkal	389161.2